

JIZZAX VOHASINING CHORVACHILIK BILAN BOG'LIQ DINIY TASAVVURLARI XUSUSIDA

Tilovbayev Muhammad

JDPU o'qituvchisi

Umirov Toshpo'lat

JDPU o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7442163>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Jizzax vohasining uzoq tarixiy rivojlanish bosqichida chorvachilik bilan bog'liq an'anaviy urf-odat va marosimlar bo'lishi bilan birga diniy afsungarlik va magik xarakterdagi turli-tuman marosimlarga boyligi xususida muallifning imtimiy xulosalari berilgan.

Kalit so'zlar: ustrushona, Jizzax vohasi, Morguzar, V.Sh.Shishkin, etnografiya, Qovunchi madaniyati.

О РЕЛИГИОЗНЫХ ОБРАЗАХ ДЖИЗАКСКОГО ОАЗИСА, СВЯЗАННЫХ С ЖИВОТНОВОДСТВОМ

Аннотация. В данной статье даны обище выводы автора о богатстве различных обрядов религиозного приворотного и магического характера, а также о наличии традиционных обычаем и обрядов, связанных со скотоводством на длительном историческом этапе развития Джиззакского оазиса. .

Ключевые слова: уструшиона, Джиззакский оазис, Моргузар, В. Ш. Шишкин, этнография, бахчевая культура.

ON THE RELIGIOUS IMAGES OF THE JIZZAKH OASIS RELATED TO ANIMAL BREEDING

Abstract. In this article, the general conclusions of the author are given regarding the richness of various rituals of religious enchantment and magical nature, as well as the presence of traditional customs and rituals related to animal husbandry during the long historical development stage of Jizzakh oasis.

Keywords: Ustrushona, Jizzakh oasis, Morguzar, V.Sh. Shishkin, Ethnography, Melon culture.

Bugungi globallashuv davrida dunyoda kechayotgan ommaviy madaniyat ko'rinishidagi tahdidlar, xalqlarning milliy qadriyatlari va ma'naviy merosiga ham rahna solmoqda. Unga qarshi kurashishning eng samarali vositasi milliy- ma'naviy meros va qadriyatlarimizni targ'ib qilish orqali yoshlarimizda vatanga sodiqlik va yuksak hurmat tuyg'ularini shakllantirishdan iboratdir.

Qadimgi Ustrushonaning Morguzar tizmasiga qarashli o'nlab tog' vodiylari, Nurota tog'i etaklari va Mirzacho'lga tutashib ketgan pasttekisliklar qadimdan o'zining o't-o'lanlarga boy yaylovlari bilan mashhur bo'lgan. Bu tabiiy qulayliklar tufayli Ustrushonaning shimoliy va g'arbiy qismi ham Markaziy Osiyoning boshqa dehqonchilik vohalari kabi qadimdan jadal o'zlashtirilgan.

Olimlarning ta'kidlashicha, geografik muhit (tuproq, rel'ef, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiat, issiqlik va hk.lar)ga xos xususiyatlar etnos ma'naviy madaniyatini shakllanishiga, uning ruhiyatiga ham ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatadi. Bu esa shubhasiz xalqlarga xos milliy xususiyatlarda, urf-odatlarda, rasm-rusumlarda namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlarida uy hayvonlarining barchasida alohida pir-homiylari bo'lib, ular aksari musulmon avliyolari nomi bilan bog'langan. Yilqini homiy piri Qambar ota, qo'yniki Cho'pon ota, tuyaniki Oysil qora, qoramolniki Zangiota, echkiniki esa Sajan ota bo'lgan.

1927 yilda tarixchi V.Sh.Shishkin "Zangi ota" mozori haqida yozar ekan, Zangi bobo taniqli shayx Sulaymon Hakim ota, ya'ni Ahmad Yassaviyning shogirdi ekanligini ta'kidlaydi. Rivoyatda yozilishicha, Zangi bobo cho'ponlar homiysi bo'lgan.

Etnografik ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, har bir chorvadorning xo'jaligida qadimdan qoramol saqlangan. Chorvador xonadonida to'kislik timsoli sifatida ularga atab alohida joy-og'ilxonalar qilingan. Chorvadorlar sigir tuqqanidan keyin uchinchi kuni uning sutidan uvuz (og'iz) tayyorlab, qo'shnilar, yaqin qarindoshlar, oila a'zolarini mehmon qilganlar. Uni tanovvul qilishdan avval xonodon egalariga qut-baraka, sog'lik tilab duoyi fotiha o'qilgan.

O'tmishda aholi yomon ko'zga ishongan. Shuning uchun yangi tug'ilgan bo'taloq, qulun, buzoq va qo'zilar notanish nigohlardan yashirilgan. Xususan, bo'taloq qo'rada ikki hafta asralib, so'ng bo'yniga ola-bula arqon bog'lab qo'yilgan. Ba'zida qora yalpoq, yumaloq toshni o'rtasi teshilib, undan tumor yasab bo'yniga osib qo'yilgan. Ba'zida esa hayvonni boshiga ukkini pati qistirilgan. Maxsus uchburchak tumorlar yasalib, ichida 7 ta qoratosh, qog'ozga arabcha yozilgan duolar solinib hayvonni bo'yniga osib qo'yishgan.

Qovunchi madaniyati sohiblari, jumladan ustrushonaliklarda ham mashhur hind eposi "Mahobxarata"da ta'kidlangan ho'kiz (qoa mol)ga sig'inish mavjud bo'lgan. Qoramol-ho'kizni ilohiyashtirish qadimdan mavjud bo'lib, u "Gopadshoh" timsolida ham aks etgan. Odam ho'kiztanasi ho'kiz, yuzi odam tasvirining ko'plab uchrashi O'rta Sirdaryoboyi xalqlarining yirik shoxli hayvonlarni ilohiyashtirisi bilan bog'liq an'anaviy marosimlaridan biri hisoblanadi.

Ustrushona chorvadorlari xo'jaligida qoramollar soni unchalik ko'p bo'lмаган. Bu avvalo kop' sonli qoramolga ozuqa yig'ish muammosi bilan bog'liq hisoblanadi. Tog'li mintaqalarda yilqi, qolgan barcha hududlarda qo'ychilik katta foyda keltirgan. Chunki, ularni qishin-yozin oyoqlatib boqish mumkin bo'lgan va ular uchun qishga ko'p ozuqa yig'ilмаган. Shuning uchun ulardan xo'jalikka katta daromad kelgan. Sunday bo'lsada, "yetti xazinaning biri", "oilaning bakovuli" hisoblangan qoramol-sigir har bir xo'jalikda mavjud bo'lgan.

Ho'kiz kulti mo'l-ko'lchilik va yog'ingarchilik homiysi sifatida qadrlangan. A.Xo'jayevning yozishicha, qadimgi Xitoy manbalarida "nguziye", "ruziye" atamalari davlat nomi sifatida ishlatilgan. Ammo bu atamalar "o'g'uz" yoki "g'uz" so'zidan kelib chiqqan. O'g'uz so'zi hozirgi o'zbek tilida ilohiy ho'kiz ma'nosini anglatgan bo'lib, u o'tmishda quvvat, qudrat ramzi sifatida ishlatilgan va Ruziye davlati aholisining totemi bo'lgan.

Chorvachilik xo'jaligidagi ayrim qurol-buyumlar muqaddas hisoblangan. Xususan qo'zi, toychoq va bo'taloqlarni bog'lash moslamalari – bo'yinturuqlar, otni ushslash uchun xalqa xo'jayin tomonidan begonaga berilmagan. Arqon va qurolni ustidan ayollarni xatlab o'tishi ta'qilangan.

Chorvadorlar oziq-ovqat manbaining asosiy qismi sigirdan olinadigan sutga bog'liq bo'lgani uchun bu jonivorga nisbatan e'tiqodiy tasavvurlar ilk davrlardanoq vujudga kelgan. Chunki sigirdan olinadigan mahsulotlar (sut,qatiq, ayron, qurt, sutga pishirilgan non va hk.lar)ni har qanday sharoitda va yil bo'yи iste'mol qilish chorvadorlarning farovon yashashini kafolatlagan.

Aholi sutning muqaddasligiga ishongan. Ularda ushbu mahsulot bilan bog‘liq turli qarg‘ishlar, qasamlar shakllangan. “Oq ursin”, “Oqni uvoliga uchrasin” va boshqalar. Ko‘pgina Sharq xalqlarida sut bilan bog‘liq ta’qilalar ham uchraydi. Jumladan, kun botganidan so‘ng, ayniqsa sutni oyni yorug‘ida yulduzli tunda uydan chiqarib bo‘lmasligi irimi hozirgacha saqlangan.

Qo‘yni qo‘rasiga, ba’zida tuyani bo‘yniga qo‘yning kuragi osib qo‘yilsa bo‘rilar va o‘g‘rilardan asralishiga ishonganlar. Xalq orasida bu suyaklarning ajoyib xislatlari haqida ko‘plab rivoyatlar mavjud. O‘tmishda turk-mo‘g‘ul elatlarida qo‘yning kuragi sirli xususiyatga ega deb hisoblangan. Folbinlar unga qarab turli bashoratlar qilgan. Molni kasallanishi bilan bog‘liq qator udum – marosimlar bo‘lgan. Kasallikning asl sababini bilmagan chorvadorlar bu holatni otarga yovuz ruhlarni yopishgani bilan izohlashgan. Xususan to‘polon (Sibir, yazvasi), kuya (chechak) kasalliklaridan qo‘y otarlarini muqaddas avliyolar qabri bo‘lgan mozorlar atrofida aylantirilib, qurbanliklar qilib ularni asrashga intilganlar.

Aholi tasavvurida tim qora mushuklar noma’lum, sirli kuchga ega hisoblangan. Shuning uchun bu tusdagi mushuklarni egalaridan yashirinchha o‘ldirishib, tanasini qo‘shning ustiga qo‘yishgan va shu orqali yovuz kuchlarni haydashgan. Ba’zida qo‘ton ichiga eski qabrdan olingan odam kalla suyagini qo‘yishgan. Is, olov orqali yovuz ruhlarni haydash uchun archa shoxlari, isiriq yondirilib, qo‘sh-qo‘ton tozalangan.

Kasallik kuzatilayotgan otarni 10-15 m masofada ikki ustun o‘rnatib, 1,5 m balandlikda ola arqon tortib, mazkur ustunlar oldida gulxan yondirib, unga tuz sepganlar. So‘ngra olov, arqon ostidan tuzning chars-chursi bilan qo‘y haydab o‘tilgan. Otardagi qo‘ylarda oshqozon-ichak kasalliklari tez-tez bo‘lib turgan. Bu holda otni yelkasi orqali uch marta yumalatib duolar o‘qilgan, so‘ng otning yon tomonlariga quruq qumaloqlar bilan uch marta urilgan yoki ustiga ayron qo‘yilib itlarga yalatilgan. Ba’zida kasal otga o‘tirib, yaqin mozorga borib, uning atrofida uch marta otni aylantirib, eski qabrdan olingan tuproqni uni ustiga sepib turib duo o‘qilgan. Qo‘ylarning qorni og‘risa eng avvalo, ola arqon olib, unga yengil yechiladigan tugun qilnib, qo‘yning qorniga 3 marta urib, tugunni tezda yechib yuborishgan. Mastit bilan kasallangan sovliqlarga afsungarlik usullari qo‘llanilgan. Qo‘y tuqqanida cho‘pon albatta bo‘rini kalla suyagi ustiga uni sog‘gan.

Yoz mavsumda molni ilon, chayon, qoraqurt va boshqalar chaqsa, ratsional davolash bilan birgalikda turli duolar bilan afsungarlikka ham murojaat qilingan. Mabodo mol tuzalib ketsa duogo‘yga sovg‘alar berilgan. Zaharli ilonga qarshi duolarini o‘qilayotganida uning nomini aytish ta’qilang‘an. Bunda ilonni sehrli kuchi ham, duixon ham chaqilgan hayvonga zarar yetkazishi mumkinligiga ishonilgan. Molni chayon yoki qoraqurt chaqqanida duogo‘y yordam so‘rab Sulaymon payg‘ambarga murojaat qilgan.

Jizzax vohasida chorvachilik bilan bog‘liq marosimlarda ham umumo‘zbekka xos jihatlar bilan bir qatorda xususiy ko‘rinishlar ham mavjuddir. Shu o‘rinda faqat Jizzax vohasi ziyoratgohlarida o‘tkaziladigan marosimlarning biriga va uni o‘tkazilish jarayoniga to‘xtalib o‘tsak.

Poda qo‘shish marosimi. Ushbu marosim asosan vohaning Zomin, Baxmal va Sh.Rashidov tumanining tog‘li hududlariga xos bo‘lib, har yili mart oyining birinchi va ikkinchi o‘n kunligida o‘tkaziladi. Marosimda qishloqda istiqomat qiluvchi urug‘lar navbati bilan (qarindosh-urug‘lar jamoasiga bir necha yilda bir marta navbat keladi) qo‘y so‘yib qurbanlik qilishadi. Bunda qishloqning har bir xonadonidan bir nafardan yoshi ulug‘ vakili ishtirot etadi.

Ushbu marosimda kimlar bu yil cho'ponlik qilishi, cho'ponga har bir bosh chorva mollari (ot, qora mol, qo'y va echki uchun alohida tabaqlashtirilgan) uchun to'lanadigan pul yoki uni o'rnini bosuvchi natural mahsulot (bug'doy, arpa yoki chorva mollari) miqdori, cho'ponlarga qo'yiladigan talablar kelishib olinadi.

Ushbu marosimni ziyoratgohlarda o'tkazilishining sababi quyidagicha: birinchidan, ziyoratgohlarning jamiyatdagi mavqeい ham inobatga olingen bo'lib, chorva mollarning barakasi, ularni kasallikdan saqlashda qadamjodagi avliyo muhofaza vazifasini o'tashiga ishonish bo'lsa, ikkinchi tomondan muqaddas joyda berilgan va'da yoki kelishilgan bitim og'zaki bo'lib, uning ishonchliligi va amal qilish tomonlarning vijdoniga bog'liq bo'ladi. Shu sababli aholi orasida ziyoratgohlarning magik xususiyatlaridan cho'chish, u yerda yolg'on gapirmaslik kabi diniy qoidalar tomonlarni ma'naviy burchini eslatishga ishonish hissi mavjud. Qolaversa, aynan ziyoratgohlar na davlatga, na ma'lum bir shaxsga tegishli bo'lgan o'ziga xos muqaddas maskan bo'lib, xalq e'tiqodlariga ko'ra aynan bu hududda amalga oshirilgan har qanday kelishuv va tabir muqqaslik ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bois bu yerda tuzilgan og'zaki shartnoma muqaddas kelishuv bo'lganligi bois uni buzish og'ir gunoh bilan tenglashtiriladi. Aynan bu holatdan ziyoratgoh va qadamjolarning o'ziga xos sakral xususiyatlari bilan birga ularning kelishuv ob'ekti tarzidagi boshqa muhim funksiyasi ham namoyon bo'ladi. Umuman olganda, ko'plab Markaziy Osiyo xalqlari hayotida ziyoratgohlar mahalliy odamlar uchun eng muqaddas maskan hisoblangan va bu yerda bajarilgan har qanday amal va marosimga o'zgacha tus berish va insonlar ruhiyati uchun ijobiy ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Xulosa qilib aytganda chorvachilik bilan bog'liq an'anaviy urf-odat va marosimlar uzoq o'tmish tarixiga ega bo'lishi bilan birga diniy afsungarlik va magik xarakterdagi turli-tuman marosimlarga boyligi bilan ajralib turadi. chorvachilik bilan bog'liq an'analar va marosimlar o'zininig mazmun-mohiyatiga ko'ra qadimiy totemizm, magiya, fetishizm, ajdodlar va hayvonlarni e'zozlash bilan bog'liq kultlari, bir so'z bilan aytganda, makon va zamon bilan bog'liq ilk diniy e'tiqodiy qarashlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Keyinchalik islom mafkurasi hukmronligi davrida ularning aksariyati islomiy an'analar bilan uyg'unlashgani.

REFERENCES

1. Sosov R.F. Epizootologiya. M. «Kolos» 1974 g.
2. M.P. Parmanov va boshqalar. Epizootologiya. T. 2006 y.
3. M.P. Parmonov va boshqalar. Epizootologiya. T. 2007 y.
4. X.S. Salimov, A.A. Qambarov. Epizootologiya. Samarqand. 2016 y.